

MILLIY G‘OYANI YOSHLAR ONGIGA SINGDIRISHDA INNOVATSION G‘OYALAR VA QARASHLAR

Ibodulloyeva Shaxina Shamsiddinovna

Samarqand Davlat Chet tillar instituti talabasi

Gmail: shaxruzjon2020@gmail.com

Ilmiy rahbar: Sattorova Dilrabo Ikramoboyevna

Samarqand Davlat Chet tillar instituti asistant o‘qituvchisi

Annotatsiya: Millat taraqqiyotida milliy g‘oyaning o‘rni beqiyosdir. Shu sababli, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan dasturiy g‘oya asosida yoshlarning ongiga, qalbiga va ichki dunyosiga milliy g‘oyani innovatsion texnologiyalar yordamida singdirish, ularni ona vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik va axloqiy fazilatlarni shakllantirish – eng oliv vazifalardan biriga aylanishi kerak. Faqat shunda biz kelajakda ma’naviy yetuk shaxslar va sog‘lom avlodni tarbiyalashga erishamiz. Jamiyatimizning asosiy vazifalaridan biri ham barkamol avlodni tarbiyalashdir. Chunki faqat ma’naviy yetuk insonlargina buyuk kelajakni bunyod eta oladilar.

Kalit so‘zlar: milliy g‘oya, ma’naviy qadriyat, or-nomus, mafkura, texnologiya, targ‘ibot, madaniyat, ma’rifat, innovatsiya, mexanizm, modernizatsiya, kommunikatsiya, immunitet.

KIRISH

Har qanday millatning rivojlanishi jamiyatdagi yoshlar qatlaming milliy g‘oya va ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatiga, ularning ongiga, qalbiga va ichki dunyosiga qanday ta’sir etayotganiga hamda amaliy faoliyatda qanday tayanganiga chambarchas bog‘liq. Shu boisdan, yoshlarning milliy g‘oyani anglab, uni o‘z ishonch va e’tiqodiga aylantirishlari, shuningdek, qanday yangi qadriyatlar shakllanganiga ham bog‘liq bo‘ladi. Chunki milliy g‘oya, bir tomonidan, yoshlarni o‘zining ob’ekti sifatida ko‘rgan bo‘lsa, boshqa tomonidan, yoshlar milliy g‘oyaning faol rivojlantiruvchilari va kelajak avlodga yetkazuvchilari hisoblanadi. Uchinchidan, yoshlar milliy g‘oya bilan qanchalik qurollangan va uni qanchalik anglab olgan bo‘lsa, jamiyat ham shunchalik rivojlanadi. Bu jarayon milliy g‘oya va yoshlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni belgilaydi. Boshqacha aytganda, milliy g‘oya qanchalik mazmunli, millat kelajagi uchun muhim va har bir kishining uzoq muddatli

maqsad va manfaatlariga xizmat qiladigan bo'lsa, yoshlar uni shunchalik tez qabul qiladi va unga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiradi.

Shu bilan birga, milliy g'oyaning yoshlarga qanchalik ta'sir ko'rsata olishi, ularni safarbar qilish, ilhomlantirish va buyuk kelajak sari yo'naltirishdagi ahamiyati, ta'lim-tarbiyatagi o'rni va roli uning hayot haqiqatlariga, real voqelikka va xalq turmush tarziga qanchalik mos kelishiga bog'liqdir.

Yoshlar haqiqatga moyil bo'lib, soxtakorlik, ko'zbo'yamachilik yoki so'z bilan amaliyotning bir-biriga zid bo'lishi kabi salbiy holatlardan nafratlanadi. Yoshlarning milliy qadriyatlar bilan munosabati va milliy g'oya asosida "Milliy tiklanish – milliy yuksalish sari" degan ulug'vor maqsad va manfaatlarini umumlashtirish, tahlil qilish hamda bu g'oyalarni boyitib, ularni ishonch va e'tiqodga aylantirish muhimdir. Bu ishni amalga oshirish uchun to'rtta masalaga alohida e'tibor qaratish zarur.

Birinchidan, mavjud vaziyatni, yaqin kelajak rivojlanish tamoyillarini va zarur bo'lsa, undagi salbiy holatlarning ijtimoiy sabablarini xolisona o'rganuvchi nodavlat va mustaqil tashkilotlar faoliyatini rivojlantirish hamda ularning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish zarur.

Ikkinchidan, tez sur'atlarda o'zgarib, doimiy yangilanib borayotgan zamon, hayotimizdagи tinimsiz yuz berayotgan voqeа va jarayonlar, shuningdek, O'zbekiston davlat mustaqilligining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy-ma'naviy asoslarini yanada mustahkamlashga bo'lgan talab va ehtiyojlar ma'naviy, ma'rifiy-mafkuraviy ishlarni yanada jadallashtirishni hamda umumiyoq maqsad yo'lida safarbar etishni talab etadi.

Uchinchidan, milliy g'oyaning kuchi, bir tomondan, ma'rifat-targ'ibot ishlarining samaradorligiga bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan, yoshlarning kundalik hayotda duch keladigan muammolarni qanday tushunishi va ularga munosabat bildira olishiga, fikrga fikr bilan, g'oyaga g'oya bilan javob bera olishiga ham bog'liqdir. Millat rivoji uchun kerak bo'lsa jonini fido qilishga tayyor yoshlar bo'lmasa, milliy g'oya va mafkura oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish qiyin. Bu esa yoshlar orasida milliy g'ururni yuqori darajada bo'lishini taqozo etadi.

Jamiyatda milliy g'oya sohasini rivojlantirish zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etishni talab qiladi, chunki bu yoshlarning dunyoqarashiga milliy g'oyaning ta'sirini kuchaytiradigan muhim vositadir. Shu sababli bugungi kunda milliy g'oyaning yoshlar dunyoqarashiga ta'sirini oshirishda fundamental va amaliy tadqiqotlar natijalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Milliy g‘oyani targ‘ib qilishda innovatsiyalar bu sohaning sifatini oshirishga qaratilgan tarzda amalga oshiriladi. Innovatsiyalar dolzarb va muhim ahamiyat kasb etib, milliy g‘oya tizimida yangi yondashuvlarni shakllantiradi. Bu yondashuvlar yangilik va tashabbuslar asosida vujudga kelib, milliy g‘oya tizimining konseptual mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli poydevor vazifasini bajaradi.

Milliy g‘oyani targ‘ibot qilishda innovatsiyani amaliyotga tatbiq etish innovatsion jarayonlar orqali amalga oshiriladi. Innovatsion jarayon deganda innovatsion o‘zgarishlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularni amalga oshirish jarayoni tushuniladi. Innovatsion jarayon — bu ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar asosida yuzaga kelgan yangiliklar, ushbu yangiliklarning shu soha vakillari tomonidan o‘zlashtirilishi va ulardan ilmiy asosda amaliyotda samarali foydalanish jarayonidir.

Milliy g‘oyani targ‘ibot qilishdagi innovatsion o‘zgarishlar va har qanday yangilikning tizimga kiritilishi ushbu soha vakillarining faoliyatini yangilash va o‘zgartirish orqali amalga oshirilishi keng o‘rganilgan. Innovatsion faoliyat esa yangiliklar asosida doimiy ravishda ishlash bo‘lib, uzoq vaqt davomida shakllanib, takomillashadi. Shu sababli innovatsiyalar ijtimoiy-siyosiy hayotga yangilik olib kirish orqali mafkuraviy qarashlarning rivojiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Milliy g‘oya va mafkura xalqimizning azaliy an’analari, udumlari, tili, dini va ruhiyatiga asoslanib, keljakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat va ma’rifat tuyg‘ularini ongimizga singdirishi lozim. Bunda uch asosiy jihat bor: Birinchidan, o‘zbek milliy mafkurasi deyilganda, bu chekshanish, xudbinlik yoki tor qarashlarga olib kelmasligi kerak; aksincha, mustaqil davlatning milliy manfaat mafkurasi, umumiylar mafkuraviy g‘oyasi sifatida qaralishi lozim. Ikkinchidan, turli harakatlar va siyosiy partiyalar mafkurasi umumiylar mafkuraviy g‘oyadan chetda yoki unga zid bo‘lmasligi kerak; mafkuralar yagona va butun jamiyatning milliy mafkurasiga aylanishi zarur. Uchinchidan, milliy mafkura globallashuv mafkurasi bilan uyg‘un bo‘lib, xalqimizning kuchi va himoyasiga tayangan holda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, xalqimizning jahon hamjamiyatidagi davlatlar orasida teng huquqli va munosib o‘rin egallashiga intilishini tarbiyalashi kerak.

Mafkuraviy g‘oyani ongiga chuqur singdirgan inson ulug‘dir. Chunki bola ota-onasidan meros bo‘lib qolgan va tilga olgan ilk so‘zidayoq milliy g‘oya, mehr-muruvvat va insonparvarlik namoyon bo‘ladi. O‘z xalqining milliy g‘oyasiga, an’ana va urf-odatlariga, til va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamay turib, xalqini butun dunyo oldida teng, o‘zligini anglaganlardan biri sifatida ko‘ra oladigan haqiqiy insonni, Vataniga sadoqatli shaxsni tarbiyalab bo‘lmaydi!

Shu bilan birga, xalqimiz o‘tmishi va bugungi hayotida shakllangan ma’naviy-madaniy va mafkuraviy qadriyatlardan ta’lim-tarbiya tizimi va ijtimoiy-madaniy tuzilmalarning turli daraja, shakl va yo‘nalishlarida — oila, bog‘cha, maktab, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari, shuningdek, mahalla, madaniy-ma’rifiy muassasalar, ommaviy axborot vositalari, jismoniy tarbiya va sport, adabiyot, san’at va din bilan bog‘liq sohalarda milliy g‘oyani xalqimizning ongi, qalbi va ichki dunyosiga yanada chuqur singdirishda keng foydalanish kutilgan natijalarni beradi. Yosh avlodga “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” va ozod, obod Vatanni meros qoldirar ekanmiz, ulardan mutafakkirlarimiz va davlat rahbarlarining ulug‘ishlarini davom ettirishlarini umid qilar ekanmiz, yoshlarning ma g“naviy uyg‘oqligiga e’tibor berishimiz lozim. G‘aflat uyqusidan uyg‘onib, kelajakka yorqin nigoh bilan boqadigan davr keldi. Shuning uchun milliy g‘oyani xalq qalbi, ongi va ichki dunyosiga singdirishda innovatsion texnologiyalar asosida amalga oshirilgan tadbirlar ketma-ketligi, miqyosi, me’yori, davomiyligi va tamoyillari kabi jihatlar qamrab olinadi. Ularning muhimligi shundaki, targ‘ibotda me’yorning buzilishi, milliy mafkura haqida doimiy va noo‘rin gapiraverish salbiy natijaga olib kelishi mumkin. Targ‘ibot texnologiyasi milliy g‘oya va milliy mafkura mazmun-mohiyatiga mos kelgan holda kutilgan natijaga erishish mumkin bo‘ladi.

Shunday qilib, milliy istiqlol mafkurasining:

- muayyan g‘oyaga ishontirish;
- uyushtirish;
- safarbar qilish;
- ma’naviy-ruhiy rag‘batlantirish;
- g‘oyaviy tarbiyalash;
- g‘oyaviy immunitetni shakllantirish;
- harakat dasturini tuzish kabi maqsadlarini amalga oshirish dolzarb vazifaga aylandi.

Aynan shu tarzda O‘zbekiston xalqining oldida turgan milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyasi — “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari ” o‘zining ta’sirchan va amaliy vositasiga ega bo‘ladi.

Mafkurani targ‘ib qilishda shunday yondashuv ko‘proq samara beradi. Ana shunda insonlarning salohiyati, mehnati, vaqt, mulki va mablag‘larini tanlangan maqsad sari yo‘naltirish mumkin bo‘ladi. Bu esa mafkuraviy siyosatning natijasini moddiy jihatdan — yuqori sifatli mahsulotlar, farovon hayot, buniyodkorlik ishlari, iqtisodiy o‘sish kabi ko‘rsatkichlarda “o‘lchash” imkonini beradi. Bu jarayonda innovatsion texnologiyalarning roli beqiyosdir.

Xulosa

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan islohotlar milliy g‘oyaning xalqimiz kuch-qudratiga aylanishi uchun zarur sharoit yaratdi. Endi asosiy masala — milliy g‘oyani har bir o‘zbekistonlikning niyati va faoliyatiga aylantirishdir. Yaxshi fikr yaxshilikka, yomon fikr yomonlikka yetaklaydi. Axborot maydoni faqat negativ kontent bilan to‘lib ketmasligi uchun milliy g‘oyani targ‘ib qilishda innovatsion texnologiyalar orqali yangi mazmun berishga alohida e’tibor qaratishimiz lozim. Ana shundagina biz kelajakda ma ’naviy jihatdan barkamol, sog‘lom avlodni tarbiyalashga erishamiz.

REFERENCES

1. Tashmetov, T . K. (2020). The Importance of the use of innovative technologies in raising the spirituality of young people. Monthly Peer Reviewed & Indexed International Online Journal, 6(11), 25-27.
2. Tashmetov, T. X. (2021). Global yutuqlardan foydalanishda milliy g “ oyaning samaradorligini oshirish mexanizmlari. Academic research in educational scienses, 2(3), 596-602.
3. Ташметов, Т. Х. (2020). Миллий ғояни ёшлар онгига сингдири шининг замонавий усуллари. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 326- 331.
4. O.Bozorov “Milliy g,,oya va targ,,ibot samaradorligi”. T.: “Ma“naviyat” 2018 . B-20.
5. A.Azizzo „jayev. Milliy istiqlol g „, oyasi va targ „, ibot texnologiyasi. “Jamiyat va boshqaruv”, 2000, 3-son, B-20.
6. I.Ergashev, N.Berdaliev, M.Davletova, G „ .Mahammadjanov O.Bo „, taylorov, “Milliy g,,oya targ,,iboti texnologiyalari O'quv qo'llanma, Toshkent – 2008. B-19